

FARZAND TARBIYASINING IJTIMOY PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Xolmatova Zulfiya

o'qituvchi, Olamnazarova Feruza 2-kurs magistrant

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanishi haqida, Bugungi kunda oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'g'in hisoblansa-da, u shaxsni to'liq tarkib toptira olmayotganligi haqida va bu muammolarni hal etish yo'laari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *oila, pedagog, farzand, ota-ona, jismoniy mehnat, tarbiya, muhit, shakllantirish, tarbiyalash.*

Bugungi kunda davlatimizda birqator o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shu qatorda ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Chunki ta'lim tizimida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar aks etmasligi mumkin emas. "Talim tug'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqib, umumta'lim maktabi o'zining o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy harakatlarini ko'rib chiqib, birinchi o'ringa quyidagi ijtimoiy rolni qo'ymoqda:

- talimni bolalar va o'smirlar manfaati asosida tashkil qilish;
- maktabda tarbiya ishini ta'lim bilan tenglashtirish;
- to'garaklar tashkil etish

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogik ish olib borish yanada keng rivojlanmoqda. Qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik, tibbiyot, psixolog, huquqshunos faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoda. Ayni vaqtda pedagogik jamoalarda jismoniy ta'lim-tarbiya masalalari va o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolari ham hal qilinmoqda.

Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, manaviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi. O'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'lib boradi. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Tarbiyada maqsadning aniqligi muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda yurtimizda tashkil etilayotgan tarbiyaning maqsadi-barkamol avlodni tarbiyalab, uni vatanga muhabbat ruxida xalqning eng yaxshi urf-odatlarini va oilaviy ananalar ruhida, jamiyat uchun bilimdon va madaniyatli shaxs qilib voyaga yetkazishdan iborat.

Bugungi kunda oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'g'in hisoblansa-da, u shaxsni to'liq tarkib toptira olmaydi. Ana shunda maktab va jamoatchikka ehtiyoj seziladi. Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, didiga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oilada kundan-kun kamolga yetib borayotgan farzand atalmish ne'mat, eng avvalo, shu oilaning azaliy qadriyatlariga, urf-odat va an'analariga to'la amal qilmog'i, qolaversa, ota-onaning o'zi farzandiga ibrat bo'la olishi

lozim. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi.

Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim- tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi, maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi. Oila bolalarga ijobiy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota-ona-buvi-buva- aka-opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi. Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim. Bolani tarbiyalashda asosiysi ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka va axloqiy bog'likka erishishdir. Ota-onalar hech qachon tarbiya jarayonini o'z holiga tashlab qo'ymasligi kerak, ayniqsa, katta bo'la boshlagan bolani o'z holiga tashlab qo'ymasligimiz kerak. Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli hil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlash kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir xil bo'lishini ko'rishi kerak (masalan: agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg'on gapirish mumkin emasligini eshitsa-yu, lekin ota-ona o'zi sezmaganda shunday qoidaga rioya qilmasalar, bola tarbiyasi darz ketadi). Har bir ota-ona farzandlarida o'zlarining davomchilarini ko'radi va albatda farzandlarining o'zlari xohlagan inson bo'lishlarini xohlaydilar. Ammo ayrim vaziyatlarda oilada nohushliklar, mojaro hamda nizolar kelib chiqadi va bular o'z navbatida bolaga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi.

Shu jumladan maktab oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qiladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishda, ijobiy hal etishda ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotlarning roli benihoyadir. Chunki ota-onalar zamonaviy, ruhiy, ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirilmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Oilaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir. Maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'quvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kiritadi. O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalar barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini-o'zi tarbiyalashi lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

ADABIYOTLAR:

1. PEDAGOGIK MAHORAT, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 -"Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi"ning talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma № 396-19) Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 A. XOLIQOV (127-128-b)

2. OILA PEDAGOGIKASI, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan, TOSHKENT - 2007 O.Hasanboyeva, D.Xoliqov... (116-121)